

O'zbekiston Respublikasi
Ta'limni rivojlantirish respublika
ilmiy-metodik markazining
2024-yil 7-iyundagi
23-sonli buyrug'iga
Ilova



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA
ILMIY-METODIK MARKAZI**

**UMUMIY O'RTA TA'LIMNING O'QUV DASTURLARINI ISHLAB CHIQISH VA
JORIY ETISH BO'YICHA YO'RIQNOMA**

Toshkent-2024

Mazkur Yo'riqnoma umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturlarini ishlab chiqishga qo'yiladigan talablarni belgilaydi hamda umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha yo'riqnoma davlat ta'lim standarti, tayanch o'quv reja asosida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida o'qitiladigan umumta'lim fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini yaratish, takomillashtirish hamda joriy etish uchun ishlab chiqilgan.

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazining 2024-yil 7-iyundagi 23-son buyrug'i bilan amaliyotga joriy qilingan.

M U N D A R I J A

I.	Umumiy qoidalar	3
II.	O'quv dasturlarni ishlab chiqish tartibi	5
III.	O'quv dasturining tarkibiy qismlari	7
IV.	O'quv dasturini tasdiqlash va joriy etish tartibi	23
V.	Yakuniy qoida	24

I. UMUMIY QOIDALAR

O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonunining 9-moddasida Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan ta'lim turi ekanligi belgilangan. Ushbu Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-apreldagi PQ-128-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 27-martdagi VMQ-157-son qarorlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda umumiy o'rta ta'limning umumta'lim fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini tayyorlash maqsadida ishlab chiqildi.

Mazkur Yo'riqnoma umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti asosida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida o'qitiladigan umumta'lim fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini yaratish, takomillashtirish va amaliyotga joriy etish tartibini belgilaydi.

Yo'riqnoma YUNISEF bilan hamkorlikda Singapur, Finlyandiya, Hindiston, Turkiya va Qozog'iston tajribalarini inobatga olgan holda ishlab chiqildi. Bundan tashqari YUNESKO tomonidan 2017-yilda tasdiqlangan "O'quv dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha o'quv qo'llanmasi"da belgilangan talablar inobatga olindi.

Mazkur Yo'riqnomada davlat ta'lim standartlari, davlat, jamiyat va mehnat bozori talablari inobatga olinib, kompetensiyaviy yondashuv asosida umumta'lim fanlari o'quv dasturlarini ishlab chiqish bosqichlari va tartibi yoritib berilgan.

Yo'riqnoma umumta'lim fanlari bo'yicha o'quv dasturlarni ishlab chiqishda ishchi guruhlarni metodik qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar), tayanch o'rta ta'lim (V — IX sinflar) va o'rta ta'lim (X — XI sinflar) bosqichlaridan iborat bo'lib, o'quv jarayoni kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarga bilim, ko'nikma va malakalarning zarur hajmini beradi, mantiqiy va ijodiy fikrlash, ma'lumotlarni tahlil qila olish, muammolarga yechim topa olish qobiliyati va nazariy olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash kompetensiyalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida o'quv-tarbiya jarayoni quyidagi o'quv-me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi:

1. Davlat ta'lim standarti;
2. O'quv dasturlar;
3. Tayanch o'quv rejalar (variantiv va tanlov o'quv rejalar).

Shuningdek, umumta'lim fanlari o'quv dasturlarida fanning mazmuni bo'yicha bo'lim(kompetensiya/mazmun soha) va mavzular, ularga ajratilgan vaqt hajmi, mavzularni o'rganish bosqichlariga ko'ra o'quvchilarning

natijalariga qo'yiladigan talablar, o'quv natijalarini kodlash mexanizmlari yoritildi. Shu bilan birga o'quvchilarda kompetensiyalarning shakllanganlik va o'quv natijalariga erishganlik darajalarini baholash va monitoring qilish yo'llari yoritib berildi.

Ushbu Yo'riqnomada quyidagi asosiy **tushunchalar** qo'llaniladi:

o'quv natijalari – o'quvchi tomonidan ta'limning ma'lum bosqichi yakuni bo'yicha egallanadigan va o'lchash hamda baholash mumkin bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar majmui;

ta'lim qadriyatlar — ta'lim mazmunini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlar tizimini yaratish bo'yicha ko'rsatmalar va ta'lim oluvchi shaxsini shakllantirishning yetakchi omili;

baholash — o'quvchi tomonidan ta'limning ma'lum bosqichilari bo'yicha egallangan o'quv natijalarini o'lchash va baho berish jarayoni.

O'quv dasturni ishlab chiqishda o'quvchilarning milliy imtihonlarda, shuningdek, xalqaro tadqiqotlar (PIRLS, TIMSS, PISA va b.) natijalari tahlillari hisobga olinadi.

Yo'riqnomaga matematika va ona tili fanlaridan ishlab chiqilgan namunaviy o'quv dasturlari ilova qilinadi (1-2-ilovalar).

O'quv dasturining maqsadi umumiy o'rta ta'limda o'qitiladigan umumta'lim fanlar bo'yicha o'quvchilarning o'quv natijalari, bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar, o'quv mazmuni hamda yuklamalari, baholashga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

Quyidagilar o'quv dasturining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- o'quv fani bo'yicha o'qitiladigan mavzularining mazmunini belgilash;
- mashg'ulot turlari, shakllari va mavzulari bo'yicha o'quv soatlarini taqsimlash;
- fanni o'qitish bosqichlari bo'yicha o'quv natijalarini belgilash;
- o'quv fani orqali erishish lozim bo'lgan qadriyatlar va hayotiy ko'nikmalarni belgilash;
- fanlararo integratsiya natijasida shakllanadigan ko'nikmalarni belgilash;
- o'quv natijalarini baholash yondashuvi, shakli, mezonlari va shkalasi bo'yicha yo'nalish berish;
- o'qitish metodikasi, o'quv muhiti, vositalari va fanni o'qitishning tashkiliy talablari (o'quv yuklamalari va zaruriy jihozlar)ni belgilashdan iborat.

II. O'QUV DASTURLARNI ISHLAB CHIQISH TARTIBI

Umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturini ishlab chiqish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich – o'quv dasturlarni ishlab chiqish bo'yicha yuqori malakali mutaxassislardan iborat ishchi guruhlar shakllantiriladi. Ishchi guruh tarkibi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Ishchi guruh a'zolari fanlar bo'yicha olimlar, metodistlar va amaliyotchi o'qituvchilarni kiritish tavsiya qilinadi;

Ikkinchi bosqich – o'quv dasturlarining amaldagi holati tahlil qilinib, xalqaro tajribalar, davlat, jamiyat va mehnat bozori talablari o'rganiladi;

Uchinchi bosqich – o'quv dasturlarni takomillashtirish/ishlab chiqish bo'yicha mutaxassislar malakasi oshiriladi;

To'rtinchi bosqich – umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartida o'quvchiga qo'yiladigan talablarni o'rganish;

Fanlar kesimida o'quv dasturlari loyihalarini ishlab chiqishda fanlararo integratsiyani ta'minlash, tutash mavzularga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Beshinchi bosqich – umumta'lim fanlari bo'yicha o'quv dasturi loyihalari ishlab chiqiladi.

Oltinchi bosqich – o'quv dasturi loyihasi (zarurat bo'lganda tajriba sinovdan o'tkazish) sohaning yetakchi mutaxassislari, amaliyotchi o'qituvchi va metodistlar hamda manfaatdor tashkilotlar vakillari ishtirokida muhokama qilinadi (davra suhbatlari, taqdimotlar, ijtimoiy tarmoq, maxsus portal va b.).

Yettinchi bosqich – o'quv dasturi loyihasi bo'yicha olingan taqriz, xulosa, tavsiya va takliflar asosida takomillashtiriladi.

Sakkizinchi bosqich – tayyor bo'lgan o'quv dasturi loyihasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi ilmiy-metodik kengash yig'ilishi muhokamasidan o'tkazilib, Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markaziga kelishishga yuboriladi va olingan xulosa asosida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlashga kiritiladi, tasdiqlanadi va amaliyotga joriy etiladi;

To'qqizinchi bosqich – tasdiqlangan o'quv dasturlar umumta'lim maktablari tomonidan foydalanishi uchun taqdim etiladi, jumladan, rasmiy saytlar va platformalarga joylashtiriladi;

O'ninchi bosqich – tasdiqlangan o'quv dasturlarni o'quv jarayonida samarali qo'llash uchun pedagoglar uchun maqsadli seminar-treninglar tashkil qilinadi, pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish o'quv reja va dasturlariga kiritgan holatda tizimli tayyorlash ishlari olib boriladi.

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi hamda Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligining tegishli mutaxassislari tomonidan xalqaro tajribalar, davlat, jamiyat va mehnat bozori talablarini o'rganish,

amaldagi dasturlarni tahlil qilish, xulosalar asosida ishchi guruhlariga talablarni belgilab beradi.

Ishchi guruh a'zolarini ilmiy-metodik qo'llab quvvatlash uchun mahalliy va xorijiy ekspertlar jalb qilinadi.

III. O'QUV DASTURINING TARKIBIY QISMLARI

O'quv dasturining tarkibiga quyidagilar kiradi:

- titul varag'i;
- titul varag'ining 2 beti;
- mundarija;
- fanni o'qitishga qo'yiladigan talablar;
- fan mazmuniga qo'yiladigan talablar;
- baholash va monitoring;
- foydalaniladigan resurslar.

Titul varag'ida quyidagilar keltiriladi:

O'quv dasturning titul varag'ida O'zbekiston Respublikasi gerbi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi nomi, fan dasturi nomi, o'quv dasturi joylashtirilgan platformaga integratsiya qilingan QR-kod belgisi va ishlab chiqilgan yili keltiriladi.

Titul varag'ining 2 betida quyidagilar keltiriladi:

O'quv dasturini tasdiqlash va kelishish joyi, dastur nomi va ishlab chiqilgan yili keltiriladi.

O'quv dasturini tasdiqlash va amaliyotga joriy qilinishini qayd qilish varag'ida quyidagilar keltiriladi:

O'quv dasturi loyihasini muhokamadan o'tkazish, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlash tartiblari keltiriladi.

Fanni o'qitishga qo'yiladigan talablar bobi quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

1. Umumiy qoidalar;
2. Fanini maqsadi va vazifalari;
3. Fanni o'qitishdan kutilayotgan natijalar;
4. Fanning o'qitishda fanlararo integratsiyasi;
5. Fanni o'qitish metodikasi va muhitiga talablar.

1. Umumiy qoidalar: O'quv dasturining umumiy qoidalar bo'limida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida o'qitiladigan o'quv fanini o'qitishning maqsadi, vazifalari, nazariy asoslari, o'quvchilarda shakllanishi zarur hayotiy ko'nikmalar, qadriyatlar hamda fanning rivojlanish tendensiyalari beriladi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayoni o'quvchilarda tegishli axloqiy qarorlar qabul qilish va ularni o'z xatti-harakatlarida namoyon etishni shakllantirishga yo'naltirilishi zarur. Shundan kelib chiqib o'quvchilarda shakllanadigan asosiy qadriyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin.

umuminsoniy qadriyatlar (hayot daxlsizligi, fikr erkinligi, so'z erkinligi, tinchliksevarlik, tolerantlik);

milliy qadriyatlar (ona yurtiga – Vatanga, oilaga muhabbat, ajdodlar xotirasiga sadoqat, o'zidan kattalarga ehtirom, madaniy merosni avaylab-asrash, o'zaro hamjihatlik);

fuqarolik qadriyatlari (barchaning qonun oldida tengligi, shaxs daxlsizligi, xayr-saxovat, mehr-oqibat, turli millat vakillarining urf-odat va an'alariga hurmat);

shaxsiy qadriyatlar (ijodiy faollik, halollik, mehnatsevarlik, mas'uliyat, hayot davomida ilmga intilish, tashabbuskorlik, ekologik madaniyat).

Fanning mazmuniga ko'ra o'qitish bosqichini inobatga olgan holda davlat ta'lim standartlari asosida o'quv natijalari shakllantiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida o'qitiladigan umumta'lim fanini rivojlantirishning asosiy tendensiyalari yoritib berilishi lozim.

2. Fanining maqsadi va vazifalari

Fanning maqsadlari quyidagilardan iborat:

o'quvchilarda tayanch va faniga oid umumiy kompetensiyalarni shakllantirish;

o'quvchilarni tevarak-atrofimizdagi manzaraga oid dunyo qarashini kengaytirish bilan amaliy faoliyatlarini bog'lagan holda bilimlarni hayotga tatbiq eta olish;

zarur bo'lgan bilimlarni egallash, shakllantirish va rivojlantirish, ulardan kundalik hayotlarida foydalanishga o'rgatishdan iborat.

Fanning vazifalari quyidagilardan iborat:

o'quvchilarda atrof-olamni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish;

tabiatdagi jarayon va hodisalarni kuzatish, tahlil qilish;

o'quvchilarning individual xususiyatlarini rivojlantirgan holda, mustaqil ta'lim olish, kreativ, tanqidiy fikrlash va mantiqiy tahlil, qiziquvchanlik, muammolarni hal qiluvchi qarorlarni qabul qilish;

fan sohasida erishilayotgan yutuqlar, ularning amaliyotdagi tatbiqi orqali o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish;

fan-texnika va texnologiyalar taraqqiyotini o'rgatish orqali o'quvchilarda ixtirochilik qobiliyatlarini shakllantirish;

fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan buyuk allomalar va yurtimiz olimlarining ijodlari bilan tanishtirish orqali vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;

fani sohasida erishilayotgan yutuqlarning amaliyotga (fan, texnika, texnologiya) tatbiqi bilan tanishtirish orqali o'quvchilarning loyiha va o'quv-tadqiqot ishlariga jalb etib, ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish;

fanlar integratsiyasidan foydalangan holda o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish hamda ularni ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirish.

3. Fanni o'qitishdan kutilayotgan natijalar: Fanni o'qitish doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali shakllanadigan o'quv natijalari beriladi. Bunda meta-fan ko'nikmalari, XXI asr ko'nikmalarini, bitiruvchilarda nostandart sharoitlarda yuzaga keladigan muammolarni hal etish, ta'limning barcha bosqichlarida qobiliyati va ijodkorlikni rivojlantirish hamda mustaqil

hayotda zarur bo'ladigan ko'nikmalarini o'zlashtirish, maktabdan keyingi ta'lim bosqichiga yoki mustaqil hayotga qadam qo'yishda zarur bo'ladigan tayanch kompetensiyalar kiritiladi.

Bundan tashqari, bu bo'limda o'quv dasturi ishlab chiqilayotgan fanning umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari bitiruvchilariga o'qitish zarurati qayd qilinadi.

O'quv dasturida fanni o'qitish muhiti va metodologiyasi bo'yicha zamonaviy talablarga mos ravishda samarali metodlarni tanlash, qo'llash, o'quv natijalariga erishishga qaratilgan dars masalalari yoritib beriladi. Bunda fan bo'yicha asosiy tushunchalar, "Oddiydan murakkabgacha" tamoyili, fanlararo integratsiya, har xil ma'lumotlar bilan ishlash va tanqidiy fikrlashga e'tibor qaratiladi.

4. Fanning o'qitishda fanlararo integratsiyasi: O'quv dasturlarida o'quv fanini umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'quvchilariga o'qitishga zamonaviy talablar belgilanadi.

O'quv fanini umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida o'qitish bosqichlari va fanlararo integratsiyasini ta'minlash uchun o'quv dasturida alohida yoritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shundan kelib chiqib, umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasidagi umumta'lim fanlari orasidagi o'zaro bog'liq bo'lgan fanlarning integratsiyasini ta'minlash jihatlari yoritiladi. Bunda integratsiyasi ta'minlanadigan har bir fan bo'yicha qisqacha izoh berilishi zarur. Izohda fanlar orasidagi bog'liqlik masalalari aniq yoritilishi lozim. Umumiy ma'lumotlar berilsa, integratsiyani ta'minlanganligini aniqlash imkoniyati bo'lmaydi.

O'quv dasturida har bir fan bo'yicha o'qitish muhiti va metodikasiga talablar belgilab beriladi. Bu talablar ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayonini tashkil etishda o'quv muhitiga va pedagoglarning dars jarayonlarini tashkil etishi uchun minimal talablarni belgilab beradi.

5. O'quv fanini o'qitish metodikasi va muhitiga talablar: Fanni o'qitish metodikasi zamonaviy ta'lim texnologiyalari va vositalaridan faol foydalanishni nazarda tutadi. O'quv natijalariga erishishning samarali yo'llari, o'qitish va baholashning interfaol metodlarini keng qo'llashni talab qiladi.

Jumladan, 4K modeliga asoslangan innovatsion yondashuv-metodologiya o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, kollaboratsiya — o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini, ularni hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shundan kelib chiqib, har bir fan bo'yicha o'quvchilar o'zlashtirishiga samarali yordam beradigan metodlar tanlanib, o'quv dasturida berilishi mumkin.

O'quv muhitida fan bo'yicha o'quv xonasining moddiy-texnik bazasiga minimal talablar belgilab beriladi va zamon talablaridan kelib chiqib ularni mustahkamlash bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar qayd qilinishi maqsadga muvofiq bo'lib, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari uchun xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda yangi turdagi zamonaviy o'quv xonalarini barpo etish zarurati dolzarbdir.

Bunda bevosita o'quv xonasi uchun zarur bo'lgan o'quv vositalari va materiallar bilan ta'minlash bo'yicha qisqacha ma'lumot beriladi.

Fan mazmuniga qo'yiladigan talablar bobi quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:


1. Fanga oid kompetensiyalar/mazmun sohalar;
2. Fanni quyi sinfdan yuqori sinfga rivojlanib borishi;
3. Fan mazmunining sinflar bo'yicha o'quv yuklamasi, bo'lim va mavzular kesimida ajratilgan o'quv soatlari taqsimoti.

1. Fanga oid kompetensiyalar/mazmun sohalar: O'quv dasturida umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari mos ravishda fanga oid bilim, ko'nikma va malaka, kompetensiyalar/mazmun sohalar, subkompetensiya/kichik mazmun soha hamda o'quv natijalari keltiriladi.

O'quv natijalarini aniqlash/belgilash o'quv dasturini ishlab chiqishdagi asosiy qadamlardan hisoblanib, ta'limning uzviyligi hamda uzluksizligini ta'minlashi zarur.

O'quv natijalaridan kelib chiqib, o'rganiladigan fanning bo'lim va mavzulari, natijalarga erishish uchun ketadigan vaqtdan bo'lim yoki mavzular soatlari shakllantiriladi. Bunda vaqtni aniq bir formula bilan hisoblashning imkoniyati mavjud emas. Ishchi guruh a'zolari tomonidan o'quv natijalarini shakllanishi uchun yetarli deb hisoblangan vaqt o'quv soati sifatida qabul qilinadi.

O'quv dasturlarida fanga oid kompetensiyalar, o'quv natijalari, bo'lim va mavzular hamda baholash mezonlarining bir-biriga integratsiyasi quyidagicha bo'ladi (*1-rasmga qarang*):



1-rasm. Fanga qo'yiladigan talablar va o'quv natijalarini baholash

O'quv fanidan amaliy faoliyatga oid o'quv natijalari har bir sinf kesimida mazmun bo'limlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, tegishli kichik bo'limlarida o'z

aksini topgan. O'quv natijalari bo'limining mazmuniga mos bo'lgan, tegishli yosh fiziologik imkoniyatlari, aqliy va amaliy faoliyat sohalaridan kelib chiqib singdiriladi.

O'quv faniga ajratilgan soatlarni sinflar kesimida aniqlab olgandan keyin choraklardagi haftalarni hisobga olib, o'quv dasturini ishlab chiqish lozim. Shunda o'quv natijalarini sinflar kesimida choraklar bo'yicha aniqlash imkoniyati paydo bo'ladi.

O'quv maqsadlari tizimi dasturdagi o'quv natijalarini kodlash orqali taqdim etiladi va bundan asosiy maqsad har bir o'quv natijalari bo'yicha o'zlashtirish darajasini baholash va ta'lim samaradorligini monitoring qilish imkoniyatini yaratish hisoblanadi.

Bunda o'quv natijalarini sinflar kesimida kodlash quyidagicha amalga oshiriladi (2-rasmga qarang).

Nomi	Kodi	Kodlanish tartibi
Matematika	M	
1- sinf	1	
1-bo'lim	1	
1- mavzu	1	
mavzu bo'yicha 1 o'quv natijasi (O'N)	O'N №1	
mavzu bo'yicha 2 o'quv natijasi (O'N)	O'N №2	

2-rasm. Fanlar bo'yicha o'quv natijalarni kodlash

Izoh: Har bir fanning o'ziga xos xususiyatini inobatga olgan holda kodlash tartibi ko'rsatilgan (2-rasm) bo'lim so'zi mazmun sohasi deb, mavzu esa kichik mazmun sohasi yoki bob deb nomlanishi mumkin.

Fanlar kesimida o'quv natijalarini kodlashda quyidagi kodlardan foydalaniladi (1-jadvalga qarang):

1-jadval

T/r	O'quv fani nomi	O'quv fani kodi
1	Ona tili	O
2	Adabiyot (O'qish savodxonligi)	A
3	O'zbek tili	O'
	Rus tili	R
4	Chet tili	Ch
5	Tarix	T
6	Davlat va huquq asoslari	D
7	Tarbiya	T

8	Matematika	M
9	Informatika va axborot texnologiyalari	I
10	Fizika va astronomiya	F
11	Kimyo	K
12	Biologiya	B
13	Geografiya	G
14	Tabiiy fan (Science)	S
15	Musiqqa madaniyati	M
16	Tasviriy san'at va chizmachilik	T
17	Texnologiya	T
18	Jismoniy tarbiya	J
19	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik	Ch

Kodlashda 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-,7-, 8-, 9-, 10- va 11- sinf raqamlaridan va o'quv dasturidagi mavzular bo'yicha bob va bo'limlarning raqamlaridan hamda o'quv natijalarining tartib raqamlaridan foydalaniladi.

2. Fanni quyi sinfdan yuqori sinfga rivojlanib borishi

O'quv fanidan sinflar kesimidagi aniqlashtirilgan o'quv natijalarining spiralsimon o'qitish prinsipidan kelib chiqib, quyidagi 2-jadval orqali aniqlanadi. Bunda fan yuzasidan har bir bo'lim yoki bob bo'yicha tegishli ta'lim bosqichi maqsadidan kelib chiqqan holda sinflar kesimida o'quv natijalari beriladi. O'quv natijalari – o'quvchi tomonidan ta'limning ma'lum davrida egallanadigan, o'lchash va baholash mumkin bo'lgan bilim va ko'nikmalardir. Bunda o'lchab bo'lmaydigan jihatlar fanning qadriyatlar qismida aks ettirilishi maqsadga muvofiq.

Spiralsimon o'qitish prinsipidan kelib chiqib, o'quv natijalari quyidagi jadvalda taqsimlab beriladi(2-jadvalga qarang).

2-jadval

I. Boshlang'ich ta'lim bosqichida					
Kichik mazmun sohasi	Maqsad	O'quv natijalari/ Sinflar			
		1	2	3	4
1	2	3	4	5	6
1-bo'lim.					
II. Tayanch o'rta ta'lim bosqichi					
Kichik mazmun sohasi	Maqsad	O'quv natijalari/ Sinflar			
		5	6	7	8
1-bo'lim.					
III. O'rta ta'lim bosqichi					
	Maqsad	O'quv natijalari/ Sinflar			

Kichik mazmun sohasi		10	11
1-bo'lim.			

O'quv fanidan sinflar kesimidagi aniqlashtirilgan o'quv natijalarining spiralsimon o'qitish prinsipidan kelib chiqib, jadvalida 1-ustunda kichik mazmun sohasi nomi, 2-ustunda maqsadi bitiruvchilarga qo'yilgan majburiy minimal talablar(o'quv natijalarining yig'inlishi ta'lim bosqicha erishiladigan maqsadni shakllantiradi) va 3-7-ustunlarga sinflar kesimida asosiy o'quv natijalari beriladi.

O'quv fani mazmuni umumiy o'rta ta'lim bosqichlari (boshlang'ich ta'lim, tayanch o'rta ta'lim va o'rta ta'lim) bo'yicha sinflar kesimida o'qitilishi quyidagi jadval orqali aniqlanadi (3-jadvalga qarang) va uni bevosita 2-jadvalning umumlashtirilgan shakli, deb qarash mumkin. Chunki unda o'quv natijalariga erishish uchun qaysi mavzularni qaysi sinflarda o'qitilishi bevosita aks ettiriladi. Bunda fanni sinflar kesimida spiralsimon o'qitish prinsiplarini ta'minlashga e'tibor qaratiladi. Mazkur 3-jadvalda sinflar kesimida o'qitiladigan mavzular, spiralsimonligi, ularning izchilligi va uzviyligi ta'minlanishi o'z aksini topadi.

3-jadval

Bo'lim	Asosiy mavzular	Sinflar										
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13

O'quv fani mazmuni umumiy o'rta ta'lim bosqichlari bo'yicha sinflar kesimidagi o'qitilishiga oid 3-jadvalning 1-ustunida bo'lim tartib raqami, 2-ustunida asosiy mavzular(bu kichik mazmun sohasi bo'lish mumkin) va 4 - 13-ustunlarda mavzularning qaysi sinflarda o'qitilishi "+" belgisi orqali yoritiladi.

Izoh: Tarix, Davlat va huquq asoslari kabi fanlarining o'ziga xos xususiyatini inobatga olgan holda ishchi guruh tomonidan o'quv dasturi maketida ko'rsatilgan 2-, 3-jadvallar to'ldirilmasligi mumkin.

3. Fan mazmunining sinflar bo'yicha o'quv yuklamasi, bo'lim/bob va mavzular kesimida ajratilgan o'quv soatlari taqsimoti: O'quv dasturini ishlab chiqish uchun umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasiga muvofiq, sinflar kesimida o'quv faniga ajratilgan soatlar ko'rsatib o'tiladi.

Misol uchun, Texnologiya fani:

1-sinfda haftasiga 1 soat – jami 33 soat;
 2-sinfda haftasiga 1 soat – jami 34 soat;
 3-sinfda haftasiga 1 soat – jami 34 soat;
 4-sinfda haftasiga 1 soat – jami 34 soat;
 5-sinfda haftasiga 2 soat – jami 68 soat;
 6-sinfda haftasiga 2 soat – jami 68 soat;
 7-sinfda haftasiga 2 soat – jami 68 soat;
 8-sinfda haftasiga 1 soat – jami 34 soat;
 9-sinfda haftasiga 1 soat – jami 34 soat.

O'quv fani bo'yicha o'qitiladigan mavzular, ularda shakllantiriladigan o'quv natijalari, ajratilgan soat va uning umumiy yuklamaga nisbati "Namunaviy mavzular rejasi va o'qitish natijalari" jadvalida beriladi (4-jadvalga qarang).

4-jadval

Bo'lim	Mavzular	O'quv natijalari	O'quv yuklamasi	
			Dars soati	%da
1	2	3	4	5
___ - sinf				
1	M.1.1.1.			
	M.1.1.2.			
2				
___ - sinf				

Namunaviy mavzular rejasi va o'qitish natijalari kiritilgan 4-jadvalning 1-ustunida bo'lim tartib raqami, 2-ustunida mavzular, 3-ustunida o'quv natijalari, 4-ustunida dars soati va 5-ustunida mavzularga ajratilgan soatning umumiy yuklamaga nisbatan foizi ko'rsatiladi.

Sinflar kesimida o'quv natijalari va fan mazmuni

O'quv fanidan namunaviy o'quv dasturi sinflar kesimida ishlab chiqilib, boblar, mavzular va o'quv natijalari kodlari bilan taqdim qilinadi hamda o'quv natijalariga izoh beriladi (5-jadvalga qarang).

5-jadval


___-sinf			
Bo'lim	Mavzu	O'quv natijalari	Izohlar
1	2	3	4
		M.1.1.1.1	

O'quv fanidan o'quv dasturiga oid 5-jadvalining 1-ustunida bo'lim nomi va kodi, 2-ustunida mavzu nomi va kodi, 3-ustunida mavzu bo'yicha o'quv natijasi va kodi hamda 4-ustunida o'quv natijalariga izoh beriladi.

FANNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATINI INOBATGA OLIB YONDASHISH FARQ QILINADI

ONA tili, **RUS** tili va **CHET** tili fanlarining o'quv dasturlarini ishlab chiqishda fanning o'ziga xos xususiyatini inobatga olib yondashish maqsadga muvofiq. Bu fanlarda tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish savodxonligi, shuningdek, nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish nazarda tutiladi.

Mazkur kompetensiyalar yaxlit holatda shakllantiriladi va ular bir-birini to'ldiradi. Tilga oid kompetensiyalarning o'zaro bog'liqligi quyidagicha aks ettirilgan (3-rasmga qarang):



3-rasm. Tilga oid kompetensiyalar va ularning o'zaro bog'liqligi

O'quv maqsadlari tizimi dasturdagi o'quv natijalarini kodlash orqali taqdim etiladi va quyidagicha amalga oshiriladi (4-rasmga qarang):

Nomi	Kodi	Kodlanish tartibi
Ona tili	0	
Sinf	1	
Bob/mavzu	1	
Kompetensiya	1	
Bosh ko'nikma	1	
O'quv natija	1	
Ko'nikma bo'yicha 1 o'quv natijasi (O'N)	O'N №1	Fan Sinf Bob/mavzu Kompetensiya Bosh ko'nikma O'N • O'N • O'N • O'N • O'N • O'N
Ko'nikma bo'yicha 2 o'quv natijasi (O'N)	O'N №2	O'N • O'N • O'N • O'N • O'N • O'N

4-rasm. O'quv natijalarni kodlash

O'quv fani bo'yicha nutqiy mavzular shakllantiriladi va sinflar kesimida fanni spiralsimon o'qitish prinsipidan kelib chiqib, quyidagi jadvalga muvofiq quyi sinfdan yuqori sinfga rivojlanib borishi (6-jadvalga qarang):

6-jadval

I. Boshlang'ich ta'lim bosqichida						
T/r	Nutqiy mavzu	O'quv natijalari/ Sinflar				
		1	2	3	4	
1	2	3	4	5	6	
2	ONA VATANIM					
3	TILIM — BOYLIGIM					
II. Tayanch o'rta ta'lim bosqichi						
T/r	Nutqiy mavzu	O'quv natijalari/ Sinflar				
		5	6	7	8	9
1	ONA VATANIM	Oila muqaddas; Oila turlari; O'zbek oilasi; Oilaviy bayramlar.	Mahalla, guzar va ko'cha; Mahallangizga xos an'analar, taomlar; Milliy bayramlar.	Mening qishlog'im; Ona shahrim; Betakror ovulim.	Ota yurt; Ona Vatanning buyuk tarixi; Vatanni sevmoq — iymondan dir.	Mustaqillik — oliy ne'mat; Bayroq — bu nomusdir.
2	TILIM — BOYLIGIM					
3						
4						
5						
III. O'rta ta'lim bosqichi						
T/r	Nutqiy mavzu	O'quv natijalari/ Sinflar				
		10		11		
1						
2						
3						

Nutqiy mavzular va ularning sinflar kesimidagi taqsimoti kiritilgan 6-jadvalning 1-ustunida nutqiy mavzu tartib raqami, 2-ustunida nutqiy mavzu nomi, 3-6-ustunlarda o'quv natijalari yoziladi.

Ta'lim bosqichlari va sinflar kesimida bo'lim, bob, mavzular bo'yicha nutqiy va lingvistik kompetensiyalar kesimida o'quv natijalari aniqlanadi (7-jadvalga qarang).

7-jadval

I. BOSHLANG'ICH TA'LIM BOSQICHIDA					
T/r	Bosh ko'nikmalar	O'quv natijalari/ Sinflar			
		1	2	3	4
1	2	3	4	5	6
A. NUTQIY KOMPETENSIYALAR					

TINGLAB TUSHUNISH VA SO‘ZLASH SAVODXONLIGI					
O‘QISH SAVODXONLIGI					
YOZISH SAVODXONLIGI					
B. LINGVISTIK KOMPETENSIYA					
GRAMMATIK SAVODXONLIK					
II. TAYANCH O‘RTA TA‘LIM BOSQICHI					
T/r	Bosh ko‘nikmalar	O‘quv natijalari/ Sinflar			
		5	6	7	8
A. NUTQIY KOMPETENSIYALAR					
TINGLAB TUSHUNISH VA SO‘ZLASH SAVODXONLIGI					
O‘QISH SAVODXONLIGI					
YOZISH SAVODXONLIGI					
B. LINGVISTIK KOMPETENSIYA					
GRAMMATIK SAVODXONLIK					
III. O‘RTA TA‘LIM BOSQICHI					
A. NUTQIY KOMPETENSIYALAR					
T/r	Bosh ko‘nikmalar	O‘quv natijalari/ Sinflar			
		10		11	
A. NUTQIY KOMPETENSIYALAR					
TINGLAB TUSHUNISH VA SO‘ZLASH SAVODXONLIGI					
O‘QISH SAVODXONLIGI					
YOZISH SAVODXONLIGI					
B. LINGVISTIK KOMPETENSIYA					
GRAMMATIK SAVODXONLIK					

Fanga oid kompetensiyalar bo'yicha o'quv natijalarining sinflar kesimida aniqlashtirilgan elementlari kiritilgan 7-jadvalning 1-ustunida bosh ko'nikmalar tartib raqami, 2-ustunida bosh ko'nikmalar nomi, 3-6-ustunlarida nutqiy va lingvistik kompetensiyalar kesimida o'quv natijalari ko'rsatiladi.

Fanga oid kompetensiyalar bo'yicha o'quv natijalarining sinflar kesimida aniqlashtirilgan elementlari jadvalidan fan mazmunining sinflar kesimida taqsimot jadvali shakllantiriladi (8-jadvalga qarang).

8-jadval

Kompetensiyalar	Bosh ko'nikmalar	sinflar /o'quv natijalar										
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
I. Tinglab tushunish va gapirish savodxonligi						+	+	+	+	+		
							+	+	+	+		
						+	+	+				
						+	+	+	+	+		
II. O'qish savodxonligi												
III. Yozish savodxonligi												
IV. Grammatik savodxonlik												

O'quv fani mazmunining sinflar kesimidagi 10-jadval jadvalning 1-ustunida bo'lim raqami, 2-ustunida fan bo'limlari va 3-13 ustunlarda asosiy mavzularning qaysi sinflarda o'qitilishi "+" belgisi orqali qayd qilinadi.

O'quv dasturida 4 ta kompetensiya bo'yicha mavzularning kichik bo'limlari, shakllanadigan o'quv natijalari, dars soatlari va dars soatlarning umumiy yuklamaga nisbatan foizlari sinflar kesimida ko'rsatiladi (9-jadvalga qarang).

9-jadval

Kompetensiyalar	Bosh ko'nikmalar	Shakllantiriladigan o'quv natijalari soni	Nisbati	
			Dars soati	Foizda
1	2	3	4	5
___-sinf				
I. Tinglab tushunish va so'zlash savodxonligi				
II. O'qish savodxonligi				

III. Yozish savodxonligi				
IV. Grammatik savodxonlik				
Jami				

O'quv yuklamasi va o'quv natijalari taqsimoti kiritilgan 9-jadvalning 1-ustunida 4 ta kompetensiya, 2-ustunida bosh ko'nikmalar, 3-ustunida shakllantiriladigan o'quv natijalari soni, 4-ustunida tegishli dars soatlar va 5-ustunida ajratilgan o'quv soatining umumiy yuklamaga nisbatan foizi beriladi.

Fanning o'quv dasturi jadvali sinflar va choraklar kesimida ishlab chiqilib, har bir bob va mavzular bo'yicha ajratilib ko'rsatiladi. Tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish hamda grammatik savodxonlik kompetensiyalari bo'yicha o'quv natijalari beriladi (10-jadvalga qarang).

10-jadval

___-sinf uchun					
Bob va mavzular	Ajrat. soat	O'quv natijalari			
		Tinglab tushunish va so'zlash savodxonligi	O'qish savodxonligi	Yozish savodxonligi	Grammatik savodxonlik
1	2	3	4	5	6
I CHORAK (jami ___ soat; shundan nazorat ishi uchun ___ soat)					
II CHORAK (jami ___ soat; shundan nazorat ishi uchun ___ soat)					
III CHORAK (jami ___ soat; shundan nazorat ishi uchun ___ soat)					
IV CHORAK (jami ___soat; shundan nazorat ishi uchun ___ soat)					

Mazkur 10- jadvalning 1-ustunida bob va mavzular, 2-ustunida ularga ajratilgan soatlar va 3-6-ustunlarida tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish hamda grammatik savodxonlik kompetensiyalari bo'yicha o'quv natijalari beriladi.

O'quv dasturida sinflar kesimida dars turlari: yangi mavzu o'tish va mustahkamlash, takrorlash, nazorat ishi va nazorat tahliliga ajratilgan soatlar beriladi (11-jadvalga qarang).

11-jadval

T/r	Dars turi	Ajratilgan soat
1	2	3
__-sinf uchun dars soati taqsimoti		
1	Yangi mavzu o'tish va mustahkamlash	--
2	Takrorlash	--
3	Nazorat ishi va tahlili	--
Jami		--

O'quvchilarning o'quv natijalarini baholash va monitoring qilish

Quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

1. Baholash mohiyati, turlari va mezonlari.
2. Baholash texnologiyalari va metodikasi.
3. Baholash natijalarini tekshirish va monitoring qilish.

1. Baholash mohiyati, turlari, mezonlari qismida baholash jarayonining mazmun-mohiyati, nazorat turlari hamda summativ baholash mezonlari haqida ma'lumot beriladi.

Baholash mohiyati. Bunda o'lchash va baholash mohiyati, maqsadi, farqi haqida umumiy ma'lumot beriladi.

Baholash turlari. Bunda tegishli sinfda umumiy o'rta ta'limda foydalaniladigan nazorat turlari va ularni o'tkazish tartibi haqida umumiy ma'lumot beriladi. Bunda nazorat turlari quyidagi tartibda berilishi lozim.

12-jadval

Nazorat turi	Nazorat turi mazmuni	Ajratilgan maksimal ball	Nazoratlar soni	Mas'ullar
1	2	3	4	5

Bunda 1-ustunda nazorat turlari, 2-ustunda nazorat turi mazmuni deskriptori, 3-ustunda ajratilgan maksimal ball, 4-ustunda nazoratlari soni, 5-ustunda mas'ullar qayd etiladi.

Baholash mezonlari. Summativ xarakterdagi nazorat turlarida foydalaniladigan og'zaki taqdimot, yozma ish, loyiha ishi, amaliy ish, ijodiy ish, laboratoriya ishi kabilarni sinflar kesimida namunaviy baholash mezonlari taqdim etiladi. Bunda summativ baholash mezonlari quyidagi tartibda berilishi lozim.

13-jadval

Indikatorlar	Darajalar va deskriptorlar			
	Yuqori	O'rta	Quyi	Eng quyi

	(3 ball)	(2 ball)	(1 ball)	(0 ball)
1	2	3	4	5

Bunda 1-ustunda indikatorlar, 2-, 3-, 4-, 5-ustunlarda darajalar va deskriptorlar beriladi. Jumladan, 2-ustunda yuqori darajaning deskriptori, 3-ustunda o'rta darajaning deskriptori, 4-ustunda quyi darajaning deskriptori, 5-ustunda eng quyi darajaning deskriptori qayd etiladi.

2. Baholash texnologiyalari va metodikasi qismida fanning xususiyatidan kelib chiqib, formativ va summativ xarakterdagi nazorat ishlari uchun umumiy baholash shakllari, texnologiyalari va usullari tavsiya etiladi.

Formativ baholash texnologiya va usullari. Bunda nazorat varaqasi, refleksiya uslublari, rubrikalar, so'rovnomalar, viktorinalar, interaktiv o'yin usullari, kichik guruhlar bilan ishlash, kichik loyihalar, amaliy ishlar, suhbatlar, kichik taqdimotlar singari baholash texnologiya va usullaridan foydalanish mumkin.

Summativ baholash texnologiya va usullari. Summativ baholashda amaliy ishlar, loyiha ishlari, yozma ishlar, og'zaki taqdimotlar, yakuniy testlar, laboratoriya ishlari, hisobotlar va portfolio kabilar tavsiya etiladi.

Umuman, formativ va summativ xarakterdagi nazorat turlarida foydalaniladigan namunaviy baholash texnologiyalari, usullari, shakllari haqida ma'lumot beriladi.

3. Baholash natijalarini tekshirish va monitoring qilish qismida nazorat ishlari natijalarini tekshirish tartibi hamda maktabda ta'lim sifati bo'yicha ichki monitoringni o'tkazish, natijalarni tahlil qilish va baholashning qayta aloqasini taminlash tartibi haqida ma'lumot beriladi.

IV. O'QUV DASTURINI TASDIQLASH VA JORIY ETISH TARTIBI

Bu band o'quv dasturining tarkibiy qismi bo'limidan o'rin oladi.

O'quv dasturi loyihasi tajriba-sinov natijalariga ko'ra ijobiy baholangan taqdirda, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining tegishli sayt yoki platformalariga jamoatchilik muhokamasi o'tkazilishi uchun yigirma kunga joylashtiriladi.

Jamoatchilik muhokamasi yakunlangandan so'ng, bildirilgan taklif va mulohazalar o'rganilib, ishchi guruh tomonidan bir hafta muddatda o'quv dasturi loyihasi amaldagi qonunchilik va DTS talablariga hamda ushbu yo'riqnoma asosida takomillashtirilib, tasdiqlash uchun rasmiylashtiriladi.

O'quv dasturi loyihasi manfaatdor tashkilotlar, mahalliy va xorijiy yetuk olimlar hamda ekspertlar tomonidan ekspertizadan o'tkazilishi va tegishli xulosa yoki taqrizlar olinishi maqsadga muvofiq.

O'quv dasturlarini tasdiqlashdan oldin fan yo'nalishlari bo'yicha o'rnatilgan tartibda tegishli kengashlarda ko'rib chiqilib, xulosalar olinadi va Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bilan kelishiladi. So'ngi Maktabgacha va maktab ta'lim vaziri tomonidan tasdiqlanadi va tegishli buyruq asosida amaliyotga joriy qilinadi.

Tasdiqlangan o'quv dasturlar umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagoglari, ota-onalar va jamoatchilik foydalanishi uchun tegishli sayt yoki platformalarga joylashtiriladi. O'quv dasturlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish maqsadida o'quv dasturi titul varag'iga QR-kod belgisi joylashtiriladi.

O'quv dasturni rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar:

O'quv dasturi loyihasi, qoida tariqasida, Microsoft Word redaktoridan va quyidagi parametrlardan foydalangan holda tayyorlanadi:

- sahifaning chap hoshiyasi 3 cm, o'ng hoshiyasi 1.5 cm, past va yuqori hoshiyalari 2 cm;
- Times New Roman garnituras;
- 14 o'lchamli shrift;
- birinchi qatorning satr boshisi 1,27 cm;
- qatorlar o'rtasidagi interval (mnojitel) 1 cm.
- o'quv dasturi matni sahifalari A4 formatda (210×297 mm);
- sarlavhalar katta va qalin harflar bilan yoziladi.
- o'quv dasturining bir sahifasi va ilovalari alohida raqamlanishi kerak. Sahifaning tartib raqami sahifaning pastida o'rtada 2 raqamidan boshlab yoziladi. Birinchi sahifaga 1 raqami qo'yilmaydi.
- Ilova belgisi 12 o'lchamli shriftida sahifaning yuqori o'ng burchagida, ilovaning raqami (agar ilovalar bir nechta bo'lsa), ilova qilinayotgan hujjat turi ko'rsatilgan hamda hujjat raqami va sanasi uchun joy qoldirilgan holda joylashtiriladi.

Foydalaniladigan resurslar bobida o'quv dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, xalqaro standartlar, internet saytlari keltiriladi.

O'quv dasturlari loyihalarini tasdiqlashda Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida rasmiylashtiriladi.

V. YAKUNIY QOIDA

Mazkur yo'riqnoma talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.